



## MAVZU: O'quvchilarning nutqini boyitish va fikrini ta'sirli ifoda qilishni o'rgatish usullari

**Qarshiyeva Muborak Arslonbek qizi SamDU talabasi**

**muborakqarshiyeva43@gmail.com**    **+998996839732**

**Annotatsiya:** O'quvchilarning so'z boyligini oshirish, so'zni qo'llay olish yo'llarini o'rgatish boshlang'ich sinfdan o'rgatib borilishi lozimligi ushbu maqolada ko'rsatib o'tilgan. Shaxsiy fikrini to'la ifoda qilishda nutqni qanday tashkil qilish, nutqini boshqara olish uchun tavsiyalar berilga.

**Kalit so'zlar:** So'z, ibora, nutqni boshqarish, so'z boyligi.

**Abstract:** This article shows that it is necessary to teach students how to increase their vocabulary and learn how to use words from primary school. Recommendations are given on how to organize a speech and manage one's speech while fully expressing one's personal opinion.

**Key words:** Word, phrase, speech control, vocabulary.

**Аннотация:** В данной статье показано, что необходимо учить учащихся увеличивать свой словарный запас и учиться использовать слова из начальной школы. Даны рекомендации, как организовать речь и управлять своим выступлением, полностью выражая свое личное мнение.

**Ключевые слова:** Слово, словосочетание, речевой контроль, словарный запас.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim sohasining poydevori ekanligi barchamizga ma'lum. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining oldiga nafaqat bolada yozish, o'qish ko'nikmalarini shakllantirish , balki uning nutqini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, fikrlash doirasini kengaytirish kabi ma'suliyatli vazifalarni bajarish ham qo'yilgan. Boshlang'ich sinfnинг ilk davrlaridan o'quvchi o'z fikrini ifodalashda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilib, so'z ma'nosini ongli anglab, uni kerakli vaziyatda qo'llay olsa, bu malaka va ko'nikma yuqori sinflarda ham poydevor vazifasini bajaradi. "Ona tili va o'qish savodxonligi " darsligida ham har bir mavzu matni bilan tanishtirilgandan so'ng mavzudagi har bir noma'lum so'zning ma'nosi olib berilgan. Mavzu davomida iboralar, maqollar, so'z birikmalari berilgan. Bu orqali o'quvchilar ham so'zning lug'aviy ma'nosini o'rnatadi, ham so'zni qay o'rinda qo'llash ko'nikmasi shakllanadi. Lug'ati boyigach esa, nutqning to'laligi, ravonligi, ta'sirchanligi oshadi.

3-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi " darsiligida so'zning so'zdan farqini ajrata olib qo'llash ko'nikmasini shakllantirish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Nutqda faqat so'z bilan emas, so'zning ma'nosini kuchaytirishda iboralarni ham qo'llay olish ko'rsatilgan. Matndagi obrazlarning xususiyatlarini , holatlarini iboralar orqali tasvirlash obraz ta'sir kuchini oshiradi.



Bahri dili ochildi/ boshi osmonga yetdi/qalpog'ini osmonga otdi/ og'zi qulog'iga yetdi/ichiga sig'madi—kayfiyati yaxshilandi, kayfi chog'

Bir yoqadan bosh chiqarmoq/ bir mayizni qirq bo'lib yemoq—hamjihat , ahil bo'lmoq

Bosh qotirdi/ boshi achidi/ miyyasi g'ovladi —qattiq o'yladi

Qo'y og'zidan cho'p olmagan/birovning mushugini pisht demaydi/ chumoliga ozor bermaydi -juda ham beozor

Qo'lini sovuq suvgaga urmagan— og'ir mehnat qilmagan

Yuragini oldirib qo'ydi/yuragi tushib qoldi —qo'rqib qoldi.

Oyog'ini qo'liga oldi—shoshib ketdi

Do'ppisini osmonga otdi/yuragi yorila yozdi(xursandchilik ma'nosida)—xursand bo'ldi.

Quyidagi iboralar darslikda berilgan va bu iboralarning ma'nosini yetkazib bera olish orqali o'quvchilar nutqi rivojlanadi.O'quvchilarining nutqini o'stirish uchun ularga quyidagi tavsiyalar berilgan bo'lishi kerak:

- 1.Shoshilmasdan gapirish.
- 2.Mazmunli gapirish
- 3.Nutqni nazorat qilish
4. So'zni o'z o'rnida gapirish
5. Aniq gapirish
- 6.Baqirmasdan gapirish
- 7.Savolga to'g'ri javob berish.
8. Yolg'on so'zlamaslik.

Agarda pedagog mana shu tavsiyalarga o'zi ham amal qilib buni o'quvchilarga singdirsa, o'quvchilar nutqi talabga javob beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga hikoya yoki matnlarni qayta hikoya qildirish ularning ham fikrlash doirasini ham nutq imkoniyatini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Ya'ni, u o'zi mustaqil so'z birikmalari tuzadi, so'zlarining bekgilarini, harakat-holatning bajarilish tarzini, tartibini eslab qoladi va qo'llaydi. Qo'llagan so'zlarini ham qanday so'zlar bilan bog'lanib kelganligiga e'tibor beradi.



## NUTQ HAQIDA

Har so'zida "bu", "anu",  
"Halig'", "so'ng", "qanaqa".  
"Bu, bu" deydi – nima bu?  
"Shunaqa"si qanaqa?

Tiliga kelib qolgan  
So'zdan qayta olmasa.  
"Bu" qo'shmasdan savolga  
Javob ayta olmasa!

Gohi qovushmay so'zi,  
Gapidan to'xtab qolsa.  
Yashni bilsa qum o'zi,  
Zo'rig'ning "3"ni.

O'zigaiz o'ylab ko'ring,  
Nima bu, qanaqa?  
Qachon golar O'tkiring  
"Nima", "bu", "qanaqa"si?

Odatlanganman, deding,  
To'g'ri, hamma gap shunda.  
Lekin axir o'z tiling  
O'zingga bo'yunsin-da.



63 @edurtm\_uz

A-a...

!...  
Hm

Erkin Vohidov

To'g'ri, aniq gap tuzib,  
Javob bergin so'roqqa.  
Xizmat qilsin har so'zing  
Fikrningi to'latmoqqa.  
  
"Mazmun" nomli mo'ljalga  
So'z aytigan o'q bo'lsin.  
Nishonga tegmay qolgan  
Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.  
  
Do'stim O'tkirjon, buni  
Yodingga tut har doim,  
Otashin notig'ini  
Minbarlar kutar doim.

Boshlang'ich sinf darsligida ushbu she'r orqali o'quvchilarining nutqida qiladigan eng ko'p xatosi , eng ko'p ishlatadigan so'zi ko'rsatilgan. Berilgan savolga to'liq javob berilib , fikrini ifodalash uchun “bu”, “anavi”, “nima”, “qanaqa” kabi so'zlarni ishlatish , ayniqsa boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda juda ko'p uchraydi. Nutqdagi bu nuqsonlarini o'quvchilardan yo'qotish uchun ,albatta, ularning nutq boyligini oshirish bu muommoning yechimidir. Ba'zi o'quvchilarni uchratamizki, berilgan savolning javobini mazmunan biladi, lekin javobini ifoda qilolmaydi. Buning sababi so'zlarni qo'llay olmasligi va nutqini chiqara olmasligi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi savol berganda javobini to'liq olishga urunishi kerak. Qisqa tasdiq ottenkasidagi yoki inkor ottenkasidagi javoblar olinadigan savollardan qochishga harakat qilishi lozim.

O'quvchilarda nutqini boshqara olishni shakllantirish muhim. O'quvchi o'z tilini o'ziga bo'y sindira olsa, kerakli so'zlarni ishlata olsa, uning fikri ham aniq va to'liq ifodalananadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Husanboyeva.Q, Shodiyev.F, Hazratqulov.M. Boshlang'ich ta'limda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. SamDU.2019.350 b.
- 1.Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M. Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligiga o'rgatish metodikasi. Darslik. -Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022.252 bet
- 2.Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M. Sinfda o'qish metodikasi. O'quv qo'llanma. SamDU. 2020. 156 b.
- 3.Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 1-sinf uchun.I.Asimova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta'lim markazi.
- 4.Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism. Darslik. 3-sinf uchun. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.-